



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
Nomoddiy madaniy meros bo'yicha respublika ilmiy tadqiqotlar tanlovi
AXBOROT XATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-405-son qarori ijrosini ta'minlash hamda mamlakatimizda nomoddiy madaniy meros, maqom va baxshichilik san'atini ilmiy jihatdan o'rganish, targ'ib qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash uchun **2024-yil 25-noyabr kuni** Nomoddiy madaniy meros bo'yicha respublika ilmiy tadqiqotlar tanlovi o'tkaziladi.

TANLOV DOIRASIDA QUYIDAGI MAQSADLAR
KO'ZDA TUTILADI

Nomoddiy madaniy merosni saqlashning zamonaviy usullari va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganish;

Milliy va xalqaro tajribani o'rganish, nomoddiy madaniy merosni global miqyosda saqlashga qaratilgan dasturlarni muhokama qilish;

Raqamlashtirish va arxivlash texnologiyalarining nomoddiy madaniy merosni saqlash va tarqatishdagi rolini tahlil qilish;

Yosh avlodning madaniy merosga bo'lgan qiziqishini oshirish, ular orasida madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

Nomoddiy madaniy merosning barqaror rivojlanishdagi o'rni va roli haqida ilmiy-nazariy va amaliy fikrlar almashish;

Madaniy merosni saqlashda jamiyat va davlat idoralarining hamkorligini kuchaytirish, ularni integratsiyalashgan faoliyatlarini takomillashtirish.

ILMIY TADQIQOTLAR TANLOVI YO'NALISHLARI

1. O'zlikni namoyon qilish (*folklor*) ning og'zaki shakl va an'analari

2. Ijrochilik san'ati(*maqomchilik, sozandachilik, raqs, so'z ustasi, qo'g'irchoqbozlik, dorbozlik*);

3. Jamiyat urf-odatlarini, marosim va bayramlari(*oilaviy, xalq, kasbiy va mavsumiy marosimlar*);

4. Tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlarini(*tabobat va koinot bilan bog'liq urf-odatlar, an'anaviy tabobat, milliy taomlar*);

5. An'anaviy hunarmandchilik(*kulolchilik, ganchkorlik, do'ppido'zlik, miniatyura*) bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar.

Tanlovda ishtirok etish uchun olimlar, oliy va o'rta ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, madaniyat va tarix sohasi mutaxassislari va talaba-yoshlar **taklif etiladi**.

Tanlov materiallari bo'yicha nashr etilgan to'plam elektron shaklda tarqatilishi rejalashtirilgan.

TANLOVDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

Tanlovda ishtirok etish – bepul;

Tanlovda ishtirok etish shakli – gibridd (onlayn, oflayn);

Tanlov maqomi – ma'ruzachi, tinglovchi;

Tanlov tili – o'zbek, rus, ingliz tillari.

TANLOV MATERIALLARINI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

1. Tanlov materiallari **Times New Roman** shriftida, **14-o'lchamda**, Word **2003, 2007** formatida, sahifalar chapdan va yuqoridan **2,5 sm**, pastdan va o'ngdan **2 sm** qoldirilgan holda bo'lishi shart.

2. Quyidagilar:

I qatorda, sahifaning yuqorisida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi;

II qatorda, muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi;

III qatorda, muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni;

IV qatorda, uch tilda(o'zbek, rus va ingliz) annotatsiya va kalit so'z, so'ng maqola matni yoziladi.

3. Asosiy matn satrlar oralig'i **1,5 sm** intervalda, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish – avtomatik tarzda bo'lishi lozim.

4. Maqolada ilmiy-nazariy va amaliy **takliflar**, mavzuga tegishli nazariy **masalalar** va ularning **amaliy yechimlari** yoritilishi berilishi lozim.

5. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatiladi.

6. Manba va adabiyotga havola(**ssilka**)lar asosiy matn ichida **[1]** ko'rinishida bo'lishi lozim.

7. Taqdim etilayotgan maqolalar hajmi **5-6** betgacha va orfografik, stilistik xatolardan holi bo'lishi kerak.

8. Maqolalar o'zbek tilida(**lotin alifbosida**) va elektron shaklda taqdim etilishi lozim.

9. Maqola saqlangan fayl yoʻnalish raqami va muallifning ism-sharifi bilan nomlanadi. **(Masalan: 1-yoʻnalish. Abdumajidov Abdumajid)**

10. Barcha talablarga javob bergan va tahrir hayʼati koʻrigidan oʻtgan maqolalar ilmiy toʻplamga kiritiladi.

DIQQAT!

Tanlovda ishtirok etish uchun ilmiy maqolalar **2024-yilning 10-noyabriga qadar** qabul qilinadi.

Masʼul: Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-maʼnaviy tadqiqotlar instituti.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur koʻchasi, 9-uy.

Murojaat uchun tel.: (94) 697-31-07

Maqolalar ushbu telegram nomerga elektron tarzda belgilangan muddatda taqdim etiladi. (94) 697-31-07), (55) 510-27-37

TANLOV TASHKILOTCHILARI

1. Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi
2. Madaniyat Vazirligi
3. Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi
4. Ijtimoiy-maʼnaviy tadqiqotlar instituti
5. Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti
6. Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazi